



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QASHQADARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**
2022- YIL YANVAR-MART OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4702,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 68,1 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 10,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 329,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 98,3 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar- mart oylari

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- mart oylari	2022- yil yanvar- mart oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	33,5	5,8	-27,7
Neft, ming t.	7,7	5,2	-2,5




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart oylari	2022- yil yanvar-mart oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	376,3	184,7	-191,6
Gaz kondensati, ming t.	38,4	29,8	-8,6

yanvar mart oylari yirik korxonalar bo'yicha


Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3202,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 104,9 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,5 % (20,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 1,9 % (1,1 %) va quyi texnologiyalisi – 44,5 % (41,6 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 11,7 % (2021- yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,4 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,2 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 310,0 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %), ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Tabiiy qumlar




Gaz kondensati




Tabiiy gaz




Neft



Propan, Butan



Chaqiq tosh




* Yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq




Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 35,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 95,3 %) ni, 7,4 ming tonna kalava ip (95,6 %) ni, 16,5 ming tonna paxta tolasi (53,7 %) ni hamda 633,4 ming litr aroq mahsulotlari (114,8 %) ni, tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- mart oylari	2022- yil yanvar- mart oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	36,7	35,0	-1,7
Paxta tolasi, ming t.	20,7	16,5	- 4,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,2	0,5	-0,7


Yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 131,2 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 %, fizik hajm indeksi esa, 105,5 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 7,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 47,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 27,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 62,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 552,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 132,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 37,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 150,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1380,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %, fizik hajm indeksi 90,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 90,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-mart oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 129,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,4 % ni, fizik hajm indeksi 104,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1004,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-mart oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 73,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 110,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,03 % ni, fizik hajm indeksi esa 100,6 % tashkil etgan,.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 31,1% ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 5,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-mart oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 57,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 54,0 % oshib va ishlab chiqarish hajmi 4,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-mart oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 97,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 190,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yil yanvar-mart oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi esa 146,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi 135,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1139,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 24,3 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,1 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3511,1	3155,3	-355,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	828,9	827,6	-1,3

yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2905,0	3527,3	622,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12107,1	14719,8	2612,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 21,4 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 21,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 832,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-mart oylari

62,3%

2022- yil
yanvar-mart oylari

64,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-mart oylari

37,7%

2022- yil
yanvar-mart oylari


35,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,6 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 7,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 24,8 % ni va Yakkabog' tumani 8,9 % ni, Shahrisabz shahri 8,0 % ni, Koson tumani 7,2 % ni hamda Kitob va Chiroqchi tumanlari 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (102,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yakkabog' tumani (108,2), Qarshi shahri (103 %) va Chiroqchi tumani (104,3 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 24,8 % ni shuningdek, Yakkabog' tumani 8,9 % ni, Koson tumani 7,2 % ni, Chiroqchi va Kitob tumanlari mos ravishda 7,1 % ni tashkil etdi.



808,0 mlrd. so'm


2020-yil yanvar-mart

868,0 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-mart

832,0 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-mart



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

104,7 %

2021-yil

114,4 %

2022-yil

102,7 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 14,8 % ni, Qarshi va Chiroqchi tumanlari 9,2 %, Kitob tumaniga 8,6 %, shuningdek, Qamashi tumani 8,9 % ni tashkil etdi.

333,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

327,1 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart

292,7 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

2020- yil


107,3 %

2021- yil

116,9 %

2022- yil

102,9 %






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 32,4 % ni, shuningdek, Yakkabog' tumani 11,9 % ni, Shahrisabz shaharga esa 8,7 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nison tumaniga to'g'ri kelib, 22,8 % ni, shuningdek, G'uzor tuman 17,7 % ni, Qarshi shahar esa 13,0 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

3035,5 mlrd. so'm

2021- yil

4294,4 mlrd. so'm

2022- yil

4702,4 mlrd. so'm



2020- yil


91,6 %

2021- yil

124,1 %

2022- yil

104,7 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (6724,0 ming so'm), G'uzor (3910,1 ming so'm), Qarshi shahri (2140,1 ming so'm), Kasbi tumanida (1889,2 ming so'm), Muborak tumanida (1763,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1376,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

923,5 ming so'm

2021- yil

1285,0 ming so'm

2022- yil

1376,7 ming so'm



2020- yil

89,7 %

2021- yil

122,1 %

2022- yil


102,4 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1119,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1048,4 mlrd. soʻm

2021- yil

925,7 mlrd. soʻm

2022- yil

1119,9 mlrd. soʻm



2020- yil 34,5 %


2021- yil 21,6 %

2022- yil 23,8 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 243,6 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 725,4 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 463,7 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 324,4 ming so'mni va Nishon tumanida – 265,2 ming so'mni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4871 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 893 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,4 % i) Qarshi shahriga, 533 tasi (10,9 %) Kitob tumaniga, 440 tasi (9,0 %) Chiroqchi tumaniga, 433 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan




Jami faoliyat yuritayotgan



Yanvar-mart oylari

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha 86,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-mart oylarida 33 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 71,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.